

ABDULLA AVLONIYNING BADIY ADABIYOTDAGI IJOD YO'LI

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich
magistranti Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi
oltinoyadhamova@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan yangi usul maktablarining ochilishi, hamda, yangicha tipdagi darsliklarining yaratilishiyangi davr didaktikasining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Shunday matonat va sabot bilan xalqning johillik balosidan chiqishi va savodli, ilmiy bo'lishiga jonbozlik ko'rsatgan pedagog Abdulla Avloniy bo'lib, u yaratgan darsliklarning jamoatchilikka taqdim etilishi va didaktikasini o'rganish borasidagi tahlillar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maktab, didaktika, darslik, muallim, maorif, tajriba, dars, deklamatsiya, alifbo, usulimaddiya, o'qish, o'rgatish, tamoyil, ta'limvositalari. Didaktika-ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi.

ТВОРЧЕСКИЙ ПУТЬ АБДУЛЛЫ АВЛАНИ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: В этой статье отмечается, что открытие новых методических школ, а также создание учебников нового типа в Туркестанском крае представителями джадидистского движения заложило основу для возникновения дидактики нового времени. Педагог Абдулла Авлани, который с таким упорством и саботажом помог народу выбраться из бед невежества и стать грамотным, образованным, рассказывает об анализе доступности созданных им учебников для общественности и изучении дидактики.

Ключевые слова: школа, дидактика, учебник, учитель, образование, опыт, урок, декламация, алфавит, методика, материал, чтение, обучение, принцип, воспитание, средства. Дидактика-признает обучение средством передачи социального опыта.

ABDULLAH AVLONI'S PATH TO CREATIVITY IN FICTION

Annotation: in this article, the opening of schools of a new method, as well as the creation of textbooks of a new type by the manifestations of the jadidism movement in the Turkestan territory, laid the groundwork for the emergence of didactics of the new era. With such perseverance and patience is the educator Abdullah Avloni, who is passionate about the exit of the people from the scourge of ignorance and becoming literate, learned, and talks about the analysis of the textbooks he created to the public and the study of didactics.

Keywords: school, didactics, textbook, teacher, maorif, experience, lesson, declamation, Alphabet, usulimaddia, reading, teaching, principle, teaching. Didactics recognizes education as a means of giving social experience.

KIRISH

Abdulla Avloniy buboradajribagatayanadi. Darhaqiqat, o`qish, o`rganish ta`lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta`limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta`limga pedagogik, ya`ni, ijtimoiy tajribani berish, o`rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat – ikki shaxs, ya`ni, o`quvchi va o`qituvchi o`rtasidagi munosabatlar yetakchi o`rin egallashi lozim ekanligi anglanadi. 1904-yilda Abdulla Avloniy tomonidan Toshkentning Mirobod tumanida yangi usuldagi maktab ochildi. Bu maktabning dovrug`i butun Toshkentga tarqaldi. Maktabda o`qish istagida bo`lgan o`quvchilar shaharning turli burchagidan oqib kela boshladilar. Maktabda bolalar yangicha usulda o`qitilar, ularning bilim olishlari kuzatuv asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilardi. Abdulla Avloniy "Usuli Jadid" maktabidagi ta`lim jarayonini tashkil etishda ta`lim vositalaridan samarali foydalandi. Ta`lim vositalari bu ta`lim samaradorligini ta`minlovchi ob`ektiv vositalar sirasiga kiruvchi darslik, o`quv qo`llanmalari, o`quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter kabilar hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta`lim vositasi sifatida 1909-1917-yillar davomida "Birinch muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni" va olti qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she`rlar" to`plamini nashr ettirdi. Ta`lim jarayonida bu darsliklardan to`liq foydalandi. "Birinch muallim" darsligi usuli maddiya qoidasiga binoan dastlab alifning uch o`rinda: boshida, o`rtasida va oxirida yozilishini, hamda barcha bosh harflarga alifning qo`shilishini ko`rsatib beradi. Bu usul orqali madd -bo`g`in hosil bo`ladi. Maddiya qoidasiga ko`ra, ba`zi so`zlar ma`no ifodalamaydi. Faqatgina alifbo muallifi harflarning shaklini ko`rsatishga e`tibor beradi. Ushbu alifbo darsligi ikki qismdan iborat. Birinch qismda harflar tanitiladi, ularning so`z o`rniga qarab, oladigan shakllari o`rgatiladi. O`qitish nisbatan soddaroq shaklga ega bo`lgan harflardan boshlanadi. Darslar soddadan murakkabga qarab boradi. Abdulla Avloniy darslik yaratish va dars o`tish jarayonida didaktik tamoyillarga to`la amal qiladi. Darslikning alifbo qismi olti oyga mo`ljallangan bo`lib, o`qishni o`rganish bilan parallel ravishda yozish mashqlari ham olib boriladi. O`quvchi husnixatiga alohida e`tibor qaratiladi. Darslikning ikkinchi qismida bolani yaxshilikka, odob-axloqqa yetaklovchi, pand-nasihat shaklidagi kichik hikoyalardan va she`riy manzumalardan tashkil topgan. "Birinch muallim" da

Avloniy dastavval 32 harfning yolg'iz yoziladigan shakllarini bir sahifada alifbo tartibida bergan. Mazkur darslik "Yamonliq jazosi" , "Qanoat" , "Zar qadrini zargar bilur", "Yaxshilik yerda qolmas" , "To'g'rilik" , "Ittifoq" va "Qo'shma so'zlar" kabi pand va ibratli hikoyatlardan tarkib topgan "Birinchi muallim" darsligini tugatgan o'quvchilar o'qish va yozishni o'rganib, xat-savodi chiqqan. Avloniy quyidagi jumlar orqali "Birinchi muallim" darsligini o'z zamonasi muallimlariga taqdim etadi. "Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning "Birinchi muallim"imizdan ham olub, tajriba qilub, o'qutub ko'rsalar. Chunki har gulning bir isi, har mevaning bir ta'm va mazasi vordur. Bu "bo'y" va "ta'm" esa tajriba sohiblarina kashf va ma'lum o'lur. Shoyad, millat bolalarina foidabaxsh o'lur umidinda bir necha muallimlarimizning iltijolari ila ko'b vaqt tajriba so'ngindan bu risolai ojizonamni "Birinchi muallim" ismi-la maydoni intishora qo'ydim. Maorifparvar muallim birodarlarimiz iltifotsiz qoldurmasalar kerak. Inson nuqsondan xoli o'lmadig'i kabi qilg'on amali ham qusur va xatodan ori(y) o'lmas. Shul sababli muallim afandilarimiz har bir qusur va kamchiliklarimdan tanbih va tanqid ila ogoh qilsalar edi." [3] Bu jumlar orqali muallif mazkur darslik tajriba asosida yaratilganligini, zamondosh muallimlar tomonidan foydalanilishi foydadan holi emasligini aytadi. O'zining kamtaroni fikrini bildirib, darslikni "iltifotsiz" qoldirmay, ta'lim jarayonida foydalanishni, agar darslikning kamchiliklari bo'lsa muallifni xabardor qilishlari mumkinligini aytib, o'z tavsiyasini taqdim etganligini ko'rish mumkin. Avloniy 1912-yilda usuli jadid maktablari uchun "Ikkinchi muallim" darsligini yaratdi. Bu darslik maktabning ikkinchi sinflari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bolalarbop masallar, kichik hikoyalar, she'riy manzumalar o'rin egallagan. "Ikkinchi muallim" darsligi matnlarni ravon o'qish mashqlari asosida o'rgatilgan. Bu darslik keyingi sinflarda o'qish amallarini va ta'lim-tarbiya borasidagi masalalarni mukammallashtirish uchun to'g'ri tashkil etilgan majmua edi. Avloniy quyidagi jumlar orqali "Ikkinchi muallim" darsligini keng jamoatchilikka ta'lim vositasi sifatida taqdim etadi. "Birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifbodan so'ng o'qutmak uchun ochuq til va oson tarkib ila yozilub, axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar ila ziynatlanmus h O'QUV KITOBIdur." [2] Darslikning titul qismida: -Shavk ati inson erur ilmu adob, -E'tibor etmas anga molu nasabbayti epigraf sifatida keltirilgan. Darslik "Muqaddima", "Aql", "Salovat" dan keyin, badiiy matn sifatida maktabni ulug'lovchi, ilm olishga da'vat etuvchi "Maktab" she'ri bilan boshlanadi. "Ikkinchi muallim" da bolalarning axloq-odobiga doir masallar, ibratli pand-nasihatga boy bo'lgan she'rlar, hikoyalar jamlangan, rang-barang obrazlardan foydalanilgan. Darslikda yil, sanalarning hisoblanishi, qamariya oylari hisobi,

sanai shamsiya hisobi bilan oylarning qanday nomlanishi haqida keng ma'lumot berilgan. Bundan tashqari darslikda yil fasllari bola nigohiga moslashtirib ta'rif va tavsif berilgan. Fasllardagi oylar hamda tabiat manzarasi, tabiatning fasllarga qarab o'zgarib borishi yoritib berilgan. Xususan darslikda bahorga berilgan ta'rif quyidagicha keltiriladi: "Bahor faslida kunlar uzayur, daraxtlar barg chiqarur, qishning zulmidan har tarafdan qochgan qushlar kelur, yer ustiga o'tlar yashil gilam kabi yozilur, suvlar toshar, yoqimli yellar turar, gullar yashnar, otlar kishnar, bulbullar sayrar. Yer yuzidagi insonlaru hayvonlarning yuzida shodligu sevinch bir asar ko'rilur. Xususan, sahrovu bog'larning manzarasi, har tarafdan suvlarning shalolasi, gullarning xush isi, qushlarning go'zal ovozi-nag'masi insonlarning dumog'larini chog' qilub, yangi hayot, yangi ruh, yangi safo berur." [1] Avloniy yil fasllariga berilgan ta'rifida badiiy tasviriy vositalardan unumli foydalanib, o'quvchining estetik qobiliyatini rivojlantirishga diqqatini qaratdi. Bundan tashqari darslikda oy nomlari jadval ko'rinishda taqdim etildi. 1908-yilda Avloniyning maktabi turli sabablarga ko'ra yopib qo'yildi. Bu voqeaning sabablaridan birini Avloniy o'z tarjimaiy holida quyidagicha asoslab bergan edi. "Maktabimda yer, odamlar, tog'-toshlar, daryo, osmon haqida suhbatlar o'tqazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo'lding deb maktabimni yopdilar..." [1.] Avloniy Turkiston o'lkasida birinchilardan bo'lib maktabda geografiya, astronomiya, matematika, rus tili fanlarini kiritdi. Uning izohiga qaraganda, maktabda dunyoviy fanlarning kiritilishi xalq orasida shubha uyg'otganligi ma'lum bo'ladi. Bunday holat o'sha davrda barcha jadid ma'rifatparvarlarining og'riqli nuqtasi edi. Xalq yangiliklarni qabul qilishga qiynalar va o'z qarshilini ifodalardi. Avloniy 1909-yilda Degrezmahallasida yana maktab ochdi. Maktabi uchun yangi darsliklar yaratish sabablarini muallif o'z tarjimaiy holida to'liq bayon etadi. Dars berish jarayonida bu yangi maktablar uchun har jihatdan qulay bo'lgan darsliklar yaratish zarurati tug'ilganligini, eski usuldagi maktablarda o'qitilish uchun qo'llanilayotgan adabiyotlar o'quvchining yosh davriga mos kelmasligi haqida Avloniy quyidacha izohlaydi. "Bizim Turkiston makotibi islomiyasida avvaldan oxira qadar ta'lim olinajak kitoblar: "Chor kitob", "Sabotul ojizin", "Fuzuliy", "Navoiy", "Xo'ja Hofiz", "Bedil", "Maslak ul-muttaqin"lar kabi she'r kitoblari o'ldig'i jumlaning ma'lumidir. Bu kitoblarning ba'zilari e'tiqod va amaliyoti islomga taalluq mushkul masalalardan iborat o'lg'onlaridin hamda aksarlari forsiy tilda yozilg'onlari uchun yosh bolalarning onlardan istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi." [1] Avloniy darsliklarida, asosan, oddiydan murakkabga qadar tamoyiliga amal qiladi. Avloniy bola ta'lim-tarbiyasi uchun maktab darsliklari, hamda dars berayotgan muallimlar

o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Abdulla Avloniy o'quvchilarda nutq o'stirish usullaridan ham samarali foydalanganligini uning didaktikasini tahlil qilganimizda ko'rish mumkin. Ma'lumki, o'quvchilar nutqini rivojlantirish maqsadida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish adabiyot darslarining asosiy vazifasi bo'lgan. Ta'limiy vosita vazifasini bajaruvchi ma'lum bir asar voqealari ifodali o'qish orqali o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirilgan. Asar g'oyasi to'la ochib berilgan. Abdulla Avloniy o'quvchining savodini chiqarishga qanchalik e'tibor qaratgan bo'lsa, asarlarni tushunib, ifoda bilan o'qishiga, badiiy asarni his qilishiga shunchalik ko'p diqqatini qaratgan. Dars jarayonida o'quvchilarning xor bo'lib o'qishlarini ta'minlagan, mashqlar o'tkazgan. Avloniyning o'zi dars jarayonida dirijyor sifatida namoyon bo'lgan. Chunki Avloniy dirijyorlik san'atidan ham xabardor edi. Ifodali o'qishning turli shakllari mavjud bo'lib, ulardan biri deklamatsiya qilib o'qishdir. Deklamatsiya (lot. declamatio-notiqlik mashqi)-badiiy o'qish, notiqlik san'atining muhim turlaridan biri bo'lib Sharqda deklamatsiya qadimdan rivojlangan. Xitoy, Hind podsholari, Xorazmshohlar, sugd, sak xonlari saroylarida deklamatsiya ustalari ishlagan. O'zbek xonliklari hududida ham bu san'atining mohir ustalari, xususan, qissaxonlar, dostonchilar, ertakchi va otinlar yashab ijod etganlar. Saroylarda tez-tez uyushtirib turilgan she'rxonlik ham aslida deklamatsiyaning bir ko'rinishidir. XVII-XVIII asr G'arb mumtoz teatrida deklamatsiya tushunchasi aktyorlik ijro vositalarini umumlashtirgan. Ifodali o'qishning deklamatsiya shakli o'quvchilarning jonli nutqi bilan uzviy ravishda bog'lanadi. Abdulla Avloniyning maktabdagi ifodali o'qish darslari sohada juda katta shuhrat qozondi. 1914-yil 27-fevralda Toshkentning "Kolizey" teati 2000dan ortiq tomoshabin bilan liq to'lgan. Behbudiyning "Padarkush" dramasi sahnaga birinchi bor qo'yilishi. Spektakl adabiy o'qishga ulanib ketdi. Abdulla Avloniy o'quvchilari "Padarkush" dramasiga hamohang ilm-ma'rifatga da'vat ruhi barq urib turgan "Oila munozarasi", "Maktabga da'vat" she'rlarini ifodali o'qidilar, tomoshabinlar zo'r olqish bilan kutib oldilar. [4]Avloniy ifodali o'qish darslarini tashkil etar ekan, bu darslarni estetik tarbiyaning bir ko'rinishi sifatida baholadi. Bunday darslarda o'quvchining nutqi rivojlanib, so'z san'atiga bo'lgan mehri uyg'onadi. Ta'lim jarayonida esa o'quvchi faqatgina tinglovchi emas, ta'lim jarayonining ishtirokchisiga ham aylanadi. Abdulla Avloniy o'rgatish va o'rganish asnosida boshqa xalqlar ta'lim usullari bilan tanishganini va uni o'z faoliyatida tadbiq etganligini ko'rish mumkin. Jumladan Avloniy rus adabiyoti namoyondalaridan bo'lgan Ivan Andreyevich Krilov hamda Lev Nikolayevich Tolstoylarning ibratli masallaridan namunalar olib o'z darsliklarida unumli foydalandi va didaktikasini boyitdi. Abdulla Avloniy faoliyatida maktab va maorif, ta'lim-tarbiya masalalari alohida o'rin egallaydi. U pedagogik faoliyati davomida yaratgan didaktika orqali butun davr pedagogikasiga,

ta'lim-tarbiya tizimiga o'z ta'sirini o'tkaza olgan dono murabbiydir. Avloniy yaratgan didaktika bir qancha davrlar osha zamona pedagoglari uchun ham dasturulamal vazifasini o'tab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. АбдуллаАвлоний. Танланганасарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. Тошкент "Маънавият" 2006
2. Mamasoli Jumaboyev . O'zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent - "O'ZBEKISTON" -2002
3. Ulug'bek Dolimov."Milliy uyg'onish pedagogikasi" «NOSHIR» TOHIKEHT – 2012;

